

## Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va takomillashtirish

2016 yil 17 fevral, 2 va 9 mart kunlari Davlat test markazi binosida “Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va takomillashtirish” mavzusidagi o‘quv-amaliy seminar bo‘lib o‘tdi. Mazkur jarayonda Toshkent shahri va viloyatlardan umumiy o‘rta, maktabgacha ta'lim turi bilan shug‘ullanuvchi nodavlat ta'lim muassasalari rahbarlari va vakillari ishtirok etdi.

Seminarda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 martdagi “Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 100-son qarori amalda”, “Litsenziya bitimiga asosan litsenziat tomonidan majburiyatlarni bajarilishi, Nodavlat ta'lim muassasalari va Davlat test markazi o‘rtasida ma'lumotlar almashinuvini ON-LINE tarzida yo‘lga qo‘yish” mavzularida ma'ruzalar bo‘ldi. Seminar davomida nodavlat ta'lim muassasalari faoliyati haqidagi ma'lumotlarni ON-LINE tarzida elektron bazaga kiritish va ma'lumotlar almashish bo‘yicha taqdimot o‘tkazildi va litsenziatlarni qiziqtirgan barcha savollarga soha vakillari tomonidan javoblar berildi.